



UO'K:

JISMONIY MADANIYAT FANI DASTURLARINI TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI

ПРОБЛЕМЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРОГРАММ ПО ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЕ

PROBLEMS OF IMPROVING PHYSICAL EDUCATION PROGRAMS

Abdullayev Abduvali 

Jismoniy tarbiya nazariyasi kafedrasini professori, p.f.n. Farg'ona davlat universiteti

Annotatsiya

Maqolamizda Jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi hamda umumiy ta'lim maktabi jismoniy madaniyat fani dasturlarini takomillashtirish muammolariga mansub Xorijiy davlatlarning tajribalari mazmuni yoritilgan. Jismoniy tarbiya va sport sohasi mutaxasislari – umumiy ta'lim maktabi o'qituvchilari, sport maktablarining trenerlari uchun mo'ljallangan.

Аннотация

В данной статье раскрыто содержание опыта зарубежных стран, относящегося к вопросам профессиональной подготовки учителей физической культуры, а также к проблемам совершенствования программ по физической культуре в общеобразовательных школах. Материал предназначен для специалистов в области физического воспитания и спорта — учителей общеобразовательных школ и тренеров спортивных школ.

Abstract

This article highlights the experience of foreign countries related to the issues of professional training of physical education teachers and the problems of improving physical education programs in general education schools. The material is intended for specialists in the field of physical education and sports — teachers of general education schools and coaches of sports schools.

Kalit so'zlar: Dastur; o'quv dasturi; dars; mashg'ulot; trenirovka; munitsipalitet, sport mahorati; sport razryadi; aksent; kasbiy tayyorgarlik; kasbiy nazariy tayyorgarlik; kasbiy amaliy, tayyorgarlik; rivojlangan mamlakatlar; o'quv predmeti; o'quv fani; masofaviy ta'lim.

Ключевые слова: Программа; учебная программа; урок; занятие; тренировка; муниципалитет; спортивное мастерство; спортивный разряд; акцент; профессиональная подготовка; профессионально-теоретическая подготовка; профессионально-практическая подготовка; развитые страны; учебный предмет; учебная дисциплина; дистанционное обучение.

Key words: Program; curriculum; lesson; training session; practice; municipality; sports mastery; sports qualification; focus; professional training; professional theoretical training; professional practical training; developed countries; academic subject; educational discipline; distance learning.

KIRISH

Dunyo amaliyotida maktab yoshidan boshlab o'quvchilar organizmini shakli hamda uning xizmatlarini takomillashtirish, jismini harakatlantiruvchi bilimlar, jismoniy harakat va malakalarini, mahorat va ko'nikmalarini shakllantirish, jismining sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik jarayonlar davr talablarining asoslariga bog'liq.

Hozirgi kunda biz "rivojlangan mamlakatlar" deb odatlangan mamlakatlar, ularning qatorida AQSH da ham maktab jismoniy madaniyat fani dasturlari mana salkam bir asr davomida yuqoridan bosim qilib faqat fan dasturidagi mavzularni o'qitish qoidasi amalda bo'lganligi va u o'zini oqlamaganligiga mansub tadqiqotlar mavjudligiga guvohmiz.

Muammo oqibatlarini mamlakatimiz Prezidentining 2024-yil, 15-noyabrdagi PQ-392-son "Umumiy ta'lim maktablarida jismoniy tarbiya fanini o'qitilishini tubdan takomillashtirish hamda ushbu fan o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori mazmunida Prezidentimiz tomonidan to'liq asoslab berildi.

Chunki xorijiy mamlakatlarda ham jismoniy madaniyat fani ("jismoniy tarbiya" "jismoniy tarbiya o'quv predmeti" deb nomlanadi)ning o'qitilishi va fan dasturlarida nimani o'qitilishi

PEDAGOGIKA

to'laligicha o'quv predmeti o'qituvchisiga ishonilgan. davlat ta'lim tashkilotlari tomonidan yuqoridan bosim qilib, faqat dastur materialini o'qitilishi shart deb ta'lim boshqaramalari, xorijda munitsipolitetlar va boshq boshqaruv organalari tomondan tavsiya qilingan Davlat dasturlarini tuzish maktab jismoniy madaniyat fani o'qituvchilari tomonidan amalga oshirilgan va hozirgacha shu an'anaga ustivorlik berilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Jismoniy madaniyat – bu nafaqat sport va salomatlikni targ'ib qiluvchi fan, balki umumta'lim va shaxsiy rivojlanish jarayonida muhim pedagogik vosita hisoblanadi (Ibrohimov, 2018). Zamonaviy ilmiy manbalarda bu fanni takomillashtirishning bir nechta asosiy yo'nalishlari ta'kidlanadi.

Birinchidan, metodologik jihatdan, maktablarda jismoniy tarbiyaning standart dasturlari ko'pincha aniq maqsad va individual yondoshuvdan mahrum bo'lib, bu o'quvchilarning turli fizik qobiliyatlarini hisobga olishni qiyinlashtiradi (Petrov, 2020). Shu bois, olimlar dasturlarni shaxsga moslashtirish, yosh va jins xususiyatlarini inobatga olish zarurligini ta'kidlaydilar.

Ikkinchidan, jismoniy madaniyatning mazmuni va usullari ustuvorligini ta'minlashda innovatsion texnologiyalarni joriy etish masalasi katta ahamiyatga ega (Kuznetsova, 2019). Masalan, interaktiv simulyatsiyalar, raqamli platforma va mobil dasturlar orqali mashg'ulotlar samaradorligini oshirish mumkin. Bu yondoshuv o'quvchilarning qiziqishini orttirib, ularning motivatsiyasini ham kuchaytiradi.

Uchinchidan, pedagoglarning malaka va metodik tayyorgarligi hamda ilmiy asoslangan nazorat tizimlari jismoniy madaniyat fanini rivojlantirishda muhim omil sifatida ko'rib chiqiladi (Sharipov, 2021). Ya'ni, pedagoglar faqat mashg'ulotni o'tkazish bilan cheklanmay, o'quvchilarning individual rivojlanishini baholash va tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

To'rtinchidan, adabiyotlarda ta'kidlanishicha, jismoniy madaniyatning ijtimoiy ahamiyati ham sezilarli darajada rivojlangan (Axmedov, 2017). Bu fan orqali bolalarda hamkorlik, jamoada ishlash, stressni kamaytirish va umumiy sog'lom turmush tarzini shakllantirish kabi ko'nikmalar uyg'un tarzda rivojlanadi.

Shuningdek, zamonaviy tadqiqotlar jismoniy madaniyat dasturlarini takomillashtirishda tizimli yondashuvni qo'llash zarurligini ko'rsatadi. Bu, birinchi navbatda, maktab va oliy ta'lim muassasalari o'rtasida metodik hamkorlikni, shuningdek, fan va texnologiya integratsiyasini nazarda tutadi (Ibrahimova, 2022).

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Maktab jismoniy tarbiya o'quv predmeti dasturlarni tuzishda faqat maktab fan o'qituvchilarigina emas, maktab o'quvchilarning ota - onalari, hatto maktab o'quvchilarning xohishlari va ayrim ham fikrlari hisobga olinib o'quv materialini mazmuniga quyidagi to'rtta yo'nalish berilib, jismoniy tarbiya dasturlarini tuzishni yo'lga qo'rganlar. Ayrim maktablarda 45 daqiqali maktab darslari 60 minutli darslar bilan almashtirilgan. Jismoniy tarbiyadan sinfdan tashqari mashg'ulotlarning jismoniy yuklamalari haftasiga 3-4 tadan trenirovka mashg'ulotlari bo'lishiga qaramay, ular uchun rejalashtirilgan harakat vazifalarini hal qilishda o'quvchi(shug'ullanuvchi) organizmga samarali ta'siri kutilgan darajada emasligi o'zining isbotini topib ulgurdi. 70 yildan ortiq sobiq Ittifoq davrida, 30 yildan oshiq mustaqilligimizdan so'ngi umumiy ta'lim maktabi tajribalari natijalari fikrimiz dalilidir.

Muammoga mansub ilmiy tadqiqotlarning natijalari, maxsus adabiyotlarning taxlili natijalari, inson jismi tarbiyasining samaradorligi fan dasturlarini ilmiy asoslanmaganligida degan fikrni asosli deb hisoblab jismoniy tarbiya bo'yicha davlat ta'lim standartlarini soha mutaxassislarining fikrini hisobga olib takomillashtirish zaruriyatligi muammosi yechimiga muxtojligini, uni ilmiy asoslangan variantini yaratish yo'lidan borishni taklif qilmoqdalar.

Muammoning yechimi mamlakatimizda tan tarbiyasi fani jismoniy madaniyat darsimi yoki jismoniy tarbiya darsi (o'quv predmeti)mi ekanligini hozirgacha hal qilinmaganligida ekanligi ro'kach qilinmaganidir. Agar fan "jismoniy madaniyat" fani deb nomlansa hozir 12 yil o'qitilishi lozim bo'lgan umumiy ta'limning jismoniy madaniyat fani darsida boshqa umumiy ta'lim fanlari qatori fan haqida boshlang'ich nazariy bilim berish bilan cheklanishi lozim bo'lar edi. Ya'ni inson jismining madaniyati - "jismoniy madaniyatlikka erishish va shu madaniyat sohibi egallashi lozim bo'lgan

jismoniy madaniyat ta'limi bilimlarini o'qitish bilan cheklanib, nazariy bilim berish fanning umumiy vazifasiga aylangan bo'lar edi.

Agar "jismoniy tarbiya fani" deb nomlansa (12 yil o'qitiladigan yagona umumta'lim fani) jismoniy sifatlarni rivojlantirishni nazarda tutgan fan dasturlari asosida mashg'ulotlar olib borish kerak bo'lar edi.

Shuning uchun ham yuqorida takidlanganimizdek rivojlangan mamlakatlar jismoniy tarbiya ta'limi davlat dasturlari mazmuni to'rt xil yo'nalishdagi dasturlar tuzish orqali, bu jarayonga maktab o'quvchilari, ularning ota-onalari jalb qilinib ularning tanlovlari asos qilinib jismoniy madaniyat ta'limini berish amalga oshirilmog'ida:

Birinchi yo'nalishdagi o'quv predmeti dasturlari - mazmuniga o'quv yili uchungina emas umrining 12 yillik o'quvchilik yillari davomida faqat bitta sport turini vosita qilib, shu fanni o'qitish dasturi tuzilib jismoniy tarbiya darslarini o'qitish qoidaga aylantirilgan.

Masalan, sportning maktab o'quvchilarini ko'pchiligi tanlagan bitta turi – "basketbol", "amerika futboli" yoki boshqa sport turlaridan biri bo'lishi mumkin. Maktab 12 yil davomida o'quvchi jismoniy tarbiyasini faqat sportning shu turiga aksent berib jismoniy tarbiya darslarini haftada kamida 3 ta, 4 ta 60 minutli dars va haftaning shanba, bozor kunlari 2 kunlik mjburiy musobaqalar kuni tarzida tashkillanadi hisoblab davomida maktab ligasida majburiy musobaqalarga qatnashadilar. O'quvchi 12 yil davomida sport pedagogikasi fanining faqat tanlangan bitta sport turi(maslan, voleybol bo'lishi mumkin va h.k.) orqali jismoniy tarbiya darsini o'tkazadilar.

Ikkinchi yo'nalishdagi jismoniy tarbiya fani dasturlari mazmuni - o'z ichiga darsning o'quv materiali sifatida o'quvchini jismoniy madaniyatli qilishni nazarda tutgan, ya'ni organizmini salomatligini asrash va avaylashni maqsad qilib "jismoniy yetuklik" (18 – 24 yoshdalik davri), "jismoniy kamolot" (25- 45,50 yoshidalik davri), "jismoniy barkamollik" (50 yoshidan so'ngi – 65 yoshigachalik davri)ni o'zida mujassamlashtiradi. va jismoniy barkamollik yillarida erishgan tani sihatlik darajasini pasaytirmay ushlab, erishgan jismoniy madaniyatini, jismining statusi darajasini pasaytirmay ushlab nazarda tutiladi. Jamiyatimiz a'zosini qayd qilingan yoshlari uchun jismoniy bilimlarni o'zida mujassamlashtiradi va "sog'lomlashtirish jismoniy madaniyati"ga mansub bilimlar beradigan materiallarni harbir sinif o'quvchilari uchun alohida (turli yoshdagilarga moslab tuzib) nazariy, amaliy darslar sifatida o'qitishni yo'lga qo'yadi.

Aktiv, passiv dam olish, sayrlar, sayohatlar, oddiy yurish, tez yurish, yugurish, sport pedagogikasi fanlaridan xohlaganlaridan birini tanlab maqsadli shug'ullanishning nazariy asoslariga mansub bilimlarni o'qitishni nazarda tutadi.

Uchinchi yo'nalishdagi jismoniy tarbiya fani dasturlari – maktab sport bazasi, sport inshootlarining darajasini nazarda tutib, maktab sporti sport turlaridan birnechtasini sport mahoratini oshirishni nazarda tutgan o'quv dasturlarini yaratib ommaviy jismoniy tarbiya va sport turlarini o'qitishni yo'lga qo'yadi. Dasturning mazmuni maktab sporti turlaridan kamida 2-3 ta ommaviy sport razryadini olishga tayyorlashni nazarda tutadi.

To'rtinchi yo'nalishdagi jismoniy tarbiya o'quv predmeti dasturlari: mazmunida jismoniy tayyorgarligi darajasining meyoriy normalarini topshirishga tayyorlashni nazarda tutadi; 70 yildan ortiq sobiq Ittifoq davrida yuqoridan bosim qilib faqat biz tavsiya qilgan o'quv materialini o'qitish zarur degan qoida asosida o'qitish nazarda tutilgan dasturlar tuzish amaliyoti nazarda tutilgan. Dasturlarning o'quv materiali jismoniy sifatlarni rivojlantirish, turli yoshdagilar uchun mansub bo'lgan jismoniy tayyorgarlik darajasini aniqlash meyoriy normalarini topshirishga tayyorlash, ularni hayotiy zaruriy harakat malakalarini zahirasini pasaytirmay ushlaydigan jismoniy mashqlar texnikasini o'zlashtirish, mustahkamlash, takomillashtirish, nazarda tutilgan o'quv materialini o'qitish nazarda tutilgan.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish joyizki, mamlakatimiz umumiy ta'lim maktablarida qayd qilingan o'quv dasturlarini soha mutaxasislari (maktab o'qituvchilari tomonidan) yaratilishi shu kunning talabi. Ular asosan Ovropa hamda yaqin Hamdo'stlik mamlakatlari jismoniy madaniyati ta'lim jarayonida sinalgan va o'zini oqlagan. Hozir tarixga aylangan 2020 yilgacha biz amalda foydalanilgan mamlakatimiz jismoniy madaniyati ta'limi dasturlari o'z mazmunida kamida 10 dan ortiq sport turi texnikasini o'zlashtirish talabini qo'yar edi. Ularni o'qitish uchun mamlakatimiz umumiy ta'lim maktablarida sport jihlozlari, sport inshootlari, qolaversa, sohaning mutaxasislari –

PEDAGOGIKA

fan o'qituvchilarining kasbiy nazariy va kasbiy amaliy tayyorgarligi darajasining zamon talablaridan orqadaligi amaldagi jismoniy madaniyat ta'limi sifatiga salbiy ta'sir ko'rsata yotganligini guvohiga aylanganmiz. Biz foydalangan 10 dan ortiq sport turini uchun sarflaydigan moliyaviy harajat mustaqilligimizgacha ham undan kiyin ham yetarli bo'lmagan. Mavjud mablag'ni tanlangan 1-3 ta sport turiga sarflanganligi o'zini hozir ham oqlab kelmoqda. Qayd qilingan tajriba o'quvchini aynan o'zi tanlagan sport turi bo'yicha jismoniy tarbiya qilinishi samarador ekanligi bilan Xorijiy jismoniy madaniyati ta'limini afzalligini ko'rsatib turipti.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Umumiy o'rta ta'lim maktablarida jismoniy tarbiya fanini o'qitilishini tubdan takomillashtirish hamda ushbu fan o'qituvchilarini kasbiy faoliyatini rivojlantirish chora - tadbirlari to'g'risida"gi (PQ -392 – son), Toshkent, 2024 – yil, 15-noyabr.
2. Физическое воспитание и спорт в школах зарубежных стран. Тематическая подборка. Выпуск 4., СООНТИ Фис, Москва, 1989.16 стр.
3. Козлов В.И. Здоровье закладывается в детстве. - М.:Знание, 1988.-64.(Б-ка «Здоровый образ жизни»).
4. Abdullayev A., Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi. ,darslik, 3-to'ld. nashri."Poligraf Super Servis" MCHJ Farg'ona sh. 2022 y. 475 b.